

SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari

10-maxsus
son (5-jild)

2025

SCIENCEPROBLEMS.UZ

**IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNING
DOLZARB MUAMMOLARI**

№ 5/10 (5) – 2025

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

TOSHKENT-2025

BOSH MUHARRIR:

Isanova Feruza Tulqinovna

TAHRIR HAY'ATI:

07.00.00- TARIX FANLARI:

Yuldashev Anvar Ergashevich – tarix fanlari doktori, siyosiy fanlar nomzodi, professor;

Mavlanov Uktam Maxmasabirovich – tarix fanlari doktori, professor;

Xazratkulov Abror – tarix fanlari doktori, dotsent;

Tursunov Ravshan Normuratovich – tarix fanlari doktori;

Xolikulov Axmadjon Boymahmatovich – tarix fanlari doktori;

Gabrielyan Sofya Ivanovna – tarix fanlari doktori, dotsent;

Saidov Sarvar Atabullo o'g'li – katta ilmiy xodim, Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, ilmiy tadqiqotlar bo'limi.

08.00.00- IQTISODIYOT FANLARI:

Karlibayeva Raya Xojabayevna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Nasirxodjayeva Dilafruz Sabitxanovna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Ostonokulov Azamat Abdukarimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Arabov Nurali Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Azizov Sherzod O'ktamovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Xojayev Azizxon Saidaloxonovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Xolov Aktam Xatamovich – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent;

Shadiyeva Dildora Xamidovna – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.;

Shakarov Qulmat Ashirovich – iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.;

Jabborova Charos Aminovna - iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

09.00.00- FALSAFA FANLARI:

Hakimov Nazar Hakimovich – falsafa fanlari doktori, professor;

Yaxshilikov Jo'raboy – falsafa fanlari doktori, professor;

G'aybullayev Otabek Muhammadiyevich – falsafa fanlari doktori, professor;

Saidova Kamola Uskanbayevna – falsafa fanlari doktori;

Hoshimxonov Mo'min – falsafa fanlari doktori, dotsent;

O'roqova Oysuluv Jamoliddinovna – falsafa fanlari doktori, dotsent;

Nosirxodjayeva Gulnora Abdukaxxarovna – falsafa fanlari nomzodi, dotsent;

Turdiyev Bexruz Sobirovich – falsafa fanlari doktori (DSc), Professor.

10.00.00- FILOLOGIYA FANLARI:

Axmedov Oybek Saporbayevich – filologiya fanlari doktori, professor;

Ko'chimov Shuxrat Norqizilovich – filologiya fanlari doktori, dotsent;

Hasanov Shavkat Ahadovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Baxronova Dilrabo Keldiyorovna – filologiya fanlari doktori, professor;

Mirsanov G'aybullo Qulmurodovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Salaxutdinova Musharraf Isamutdinovna – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Kuchkarov Raxman Urmanovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent v/b;

Yunusov Mansur Abdullayevich – filologiya fanlari nomzodi;

Saidov Ulugbek Aripovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Qodirova Muqaddas Tog'ayevna - filologiya fanlari nomzodi, dotsent.

12.00.00- YURIDIK FANLAR:

Axmedshayeva Mavlyuda Axatovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Esanova Zamira Normurotovna – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yurist;

Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich – yuridik fanlar doktori, professor v.b.,;

Zulfiqorov Sherzod Xurramovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Xayitov Xushvaqt Saparbayevich – yuridik fanlar doktori, professor;

Asadov Shavkat G'aybullayevich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Ergashev Ikrom Abdurasulovich – yuridik fanlari doktori, professor;

Utemuratov Maxmut Ajimuratovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Saydullayev Shaxzod Alixanovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Hakimov Komil Baxtiyarovich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Yusupov Sardorbek Baxodirovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Amirov Zafar Aktamovich – yuridik fanlar doktori (PhD);

Jo'rayev Sherzod Yuldashevich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent;

Babadjanov Atabek Davronbekovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Normatov Bekzod Akrom o'g'li — yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori;

Rahmatov Elyor Jumaboyevich — yuridik fanlar nomzodi;

13.00.00- PEDAGOGIKA FANLARI:

Xashimova Dildarxon Urinboyevna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Ibragimova Gulnora Xavazmatovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Zakirova Feruza Maxmudovna – pedagogika fanlari doktori;

Kayumova Nasiba Ashurovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Taylanova Shoxida Zayniyevna – pedagogika fanlari

doktori, dotsent;

Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Ibraximov Sanjar Urunbayevich – pedagogika fanlari doktori;

Javliyeva Shaxnoza Baxodirovna – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD);

Bobomurotova Latofat Elmurodovna — pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

19.00.00- PSIXOLOGIYA FANLARI:

Karimova Vasila Mamanosirovna – psixologiya fanlari doktori, professor, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Hayitov Oybek Eshboyevich – Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, psixologiya fanlari doktori, professor

Umarova Navbahor Shokirovna– psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Amaliy psixologiyasi kafedrasini mudiri;

Atabayeva Nargis Batirovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Shamshetova Anjim Karamaddinovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Qodirov Obid Safarovich – psixologiya fanlari doktori (PhD).

22.00.00- SOTSIOLOGIYA FANLARI:

Latipova Nodira Muxtarjanovna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri;

Seitov Azamat Po'latovich – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti;

Sodiqova Shohida Marxaboyevna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi.

23.00.00- SIYOSIY FANLAR

Nazarov Nasriddin Ataqulovich –siyosiy fanlar doktori, falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent arxitektura qurilish instituti;

Bo'tayev Usmonjon Xayrullayevich –siyosiy fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri.

OAK Ro'yxati

Mazkur jurnal Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2022-yil 30-noyabrdagi 327/5-son qarori bilan tarix, iqtisodiyot, falsafa, filologiya, yuridik va pedagogika fanlari bo'yicha ilmiy darajalar yuzasidan dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).

07.00.00 – TARIX FANLARI

Ismoilov Ubaydulla Mamat o'g'li

SUYIRLITEPA YODGORLIGIDA OLIB BORILGAN ARXEOLOGIK TADQIQOTLAR

VA TOPILGAN AYRIM TANGALAR TAHLILI 11-19

Saidboboyeva Gulzora Nematjonovna

O'ZBEKISTON ELEKTR ENERGETIKA SANOATI RIVOJIDA D.P.ROZITNING O'RNI 20-24

Umarov Sardor Yakubovich

XX ASRNING OXIRI-XXI ASR BOSHIDA GERMANIYA DAVLAT MOLIYASI VA

BIRLASHTIRISHNING MOLIYAVIY OQIBATLARI..... 25-31

Eshonkulov Shaxzod Eshkuvatovich

AHOLINING LOKAL-ETNOGRAFIK GURUHLARI VA ULAR BILAN BOG'LIQ

TOPONIMLAR 32-37

Olimov Nodirbek Anvarjon o'g'li

QO'QON XONLIGI ETNIK HOLATIGA OID MA'LUMOTLAR

(“TARIXI SHOHRUXIY” ASARI MISOLIDA) 38-41

Mo'minov Xusanboy Madaminjonovich, Daminova Mashhuraxon

DAVRIY MATBUOT VA UNING JAMIYAT TARAQQIYOTIDAGI O'RNI..... 42-45

Ahmedov Bahodir Ismailovich

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI ICHKI ISHLAR VAZIRLIGI AKADEMIYASINING

TARIXIY BOSQICHLARI 46-55

Ravshanov Mahmud

ALISHER NAVOIYNING ASARLARIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN

FOYDALANISH MAHORAT: YECHIMLAR VA ZAMONAVIY YONDASHUV MASALALARI..... 56-59

Asadova Ra'no Baymanovna

O'ZBEKISTON VA HINDISTON O'RTASIDAGI ILM-FAN HAMKORLIGI TARIXI

VA ZAMONAVIY BOSQICHLARI 60-64

Qurbonova Marg'uba

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA TIL SIYOSATI EVOLYUTSIYASI

VA MILLIY IDENTITETNI SHAKLLANTIRISH JARAYONLARI

(1991–2025 YILLAR TAHLILI) 65-68

Kamolova Habiba Muhammadiyevna

SOBIQ SOVET HOKIMIYATI YILLARIDA SHAHRISABZ IQTISODIY

INFRATUZILMASIDAGI ZIDDIYATLI O'ZGARISHLAR 69-74

Ergashev Umar Kuziyevich

XIX ASR OXIRI – XX ASR BOSHLARIDA BUXORO AMIRLIGI G'UZOR BEKLIGI AHOLISI

TARIXI (HARDURI ETNOGRAFIK GURUHI MISOLIDA) 75-79

Ergashev Akhror

THE FACTORS THAT HAVE LED TO INTERNAL CRISES IN PAKISTAN,

AND THE SUBSEQUENT STRENGTHENING OF THE MILITARY'S ROLE

IN THE COUNTRY'S POLITICAL LIFE 80-88

<i>Qurbonov Abbos Shonazarovich</i> SUN'YI INTELLEKT YORDAMIDA ARXIV HUJJATLARINI TAHLIL QILISH: YANGI TARIXIY YONDASHUVLAR	89-93
<i>Esanova Nilufar</i> CHET EL INVESTITSİYALARINING O'ZBEKISTON SANOAT SIYOSATIDAGI O'RNI: XALQARO HAMKORLIK TAJRIBASI ASOSIDA TAHLIL (QASHQADARYO VILOYATI MISOLIDA)	94-97
<i>Askarxodjayev Yaminxon Muxammedovich</i> "MAORIF VA O'QUTG'UCHI" JURNALI "MEHNAT MAKTABI NIMA DEMAK?" MAQOLASIDA O'ZBEKISTON SSRDA AMALIY TA'LIM G'OYASINING DASTLABKI NAZARIY ASOSLARI (1925-YIL, 1-SONI MISOLIDA)	98-105
<i>Ismatova Zulfizar</i> O'ZBEK MILLIY KIIYIMLARINING TAVSIFI VA TASNIFI	106-114
<i>Abdualimova Durdona Shavkat qizi</i> G'AZNAVIYLAR QUDRATINING YEMIRILISH NUQTASI.....	115-125
<i>Xadjamuratova Matlyuba Xoshimovna</i> YOSHLARNI IJTIMOIIY HIMOYA QILISH – TADQIQOTLARNING MUHIM YO'NALISHI	126-129
<i>Elboyeva Shaxnoza</i> ILMIY RAHBARLIK VA INNOVATSION BOSHQARUVDA O'ZBEK AYOL OLIMALARINING ROLI	130-134
08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI	
<i>Doniyorova Shaxnoza Doniyorovna</i> O'ZBEKISTON IQTISODIYOTIDA GEOLOGIYA VA YENGIL SANOAT TARMOQLARI O'RTASIDAGI INTEGRATSIYANING RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI	135-142
<i>Jumaniyazov Nodirbek Odilbek o'g'li</i> MINTAQA IQTISODIYOTINI BARQAROR RIVOJLANTIRISHDA SANOAT TARKIBIY O'ZGARISHLARIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR (XORAZM VILOYATI MISOLIDA)	143-151
<i>Sharipova Gulchehra Farhod qizi</i> IMPROVING THE PRACTICAL MECHANISM OF EDUCATION QUALITY MANAGEMENT BASED ON FOREIGN EXPERIENCE: IN THE CASE OF JAPAN	152-157
<i>Nurmurodov Zafarjon Nurmurod o'g'li</i> MARKAZIY OSIYO DAVLATLARIDA MAHALLIY BOSHQARUV TIZIMLARIDA SUN'IY INTELLEKT QO'LLASH TAJRIBASI: O'ZBEKISTON UCHUN XULOSALAR	158-162
<i>Sharopov Nurmuhammad Bobirovich</i> DAVLAT SIYOSATI VA YASHIL IQTISODIYOT: SUBSIDIYALAR, SOLIQ VA RAG'BATLAR	163-166
<i>Ibragimov Nodir Nusriddinovich</i> AGRAR SEKTORNI INNOVATSION RIVOJLANISHNI TA'MINLASHDA EKONOMETRIK PROGNOZLASH USHLARINING TAKOMILLASHTIRILGAN YONDASHUVLARI	167-174

<i>Soxadaliyev Abdurashid Mamadaliyevich</i> CHORVACHILIK MAHSULOTLARI ISHLAB CHIQRISH HAJMINI OSHIRISHDA BOZOR MEXANIZMLARINI RIVOJLANTIRISH.....	175-179
--	---------

09.00.00 – FALSAFA FANLARI

<i>Raupova Ra'no Sohibovna</i> GLOBALASHUV VA AXBOROTLASHGAN JAMIYATDA IBN SINO MEROSIDAN FOYDALANISH.....	180-184
<i>Mamayusupov Umidjon Kurbanovich</i> JAMIYATNI BOSHQARISHDA ILMIY BASHORATNING METODOLOGIK VA PROGNOTIK VAZIFALARI	185-189
<i>Ergashev Ozodbek Shavkatovich</i> YANGI DAVR G'ARB FALSAFASIDA INSON MUAMMOSI	190-194
<i>Alimova Shaxnoza Xamidovna</i> NOGIRONLIGI BO'LGAN YOSHLARNING JAMIYAT HAYOTIDAGI TO'LAQONLI ISHTIROKI: MUAMMOLAR VA YECHIMLAR	195-205
<i>Tolipov Baxtiyor</i> YOSHLAR IQTISODIY FAOLLIGINING TARIXIY GENEZISI VA RIVOJLANISH OMILLARI	206-211
<i>Rasulov Azizxon Mukhamadqodirovich</i> AXBOROT TIZIMLARI, MAHSULOTLARI VA XIZMATLARIDAN AXBOROT BIZNESI MUHITINI YARATISH ASOSLARI.....	212-218
<i>Abdullayeva Ziyoda Nabiyevna</i> RAQAMLI JAMIYATDA AXLOQIY ISHONCHNI AVTOMATIK BAHOLASH TIZIMI	219-225
<i>Yekubova Mavluda Iskandarovna</i> RAQAMLASHGAN JAMIYATDA KOMMUNIKATIV REALLIK VA KOMMUNIKATIV RATSIONALLIK	226-232
<i>Madraximov Atabek Abduraximovich</i> EKOLOGIK TARBIYA HAMDA BILIM – EKOLOGIK MADANIYAT POYDEVORI	233-238
<i>Рахматов Нуриддин Негкадамович</i> МЕХАНИЗМ РАЗВИТИЯ ДУХОВНО-НРАВСТВЕННЫХ КАЧЕСТВ В ТВОРЧЕСТВЕ ХУСЕЙНА ВОИЗА КАШИФИ	239-243
<i>Axmedova Dilrabo Sa'dullayevna</i> YOSHLAR ORASIDA GIYOHVAND MODDALAR VA SPIRTL ICHIMLIK LARGA QIZIQISHNING IJTIMOYIY SABAB VA OQIBATLARI	244-247
<i>Xudoykulov Azamat Beshumovich, Saidov Shomahmud Azamat o'g'li</i> INSON FALSAFASI	248-252
<i>Baratova Madina Xasanovna</i> KAMBAG'AL OILA FARZANDLARINING IJTIMOYIY FAOLLIGINI TA'MINLASH: INDIVIDUAL VA IJTIMOYIY OMILLAR	253-259
<i>Ismoilov Maxamadixon Isroilovich</i> IQTISODIY ADOLAT VA FAROVONLIK FALSAFASI: ETIK TAMOYILLAR VA IJTIMOYIY NOMUTANOSIBLIK LAR TAHLILI	260-269
<i>Obidov Asliddin Shavkatovich</i> COSMIC UNITY AND MORAL CONSCIOUSNESS: REINTERPRETING FARGHANI'S COSMOLOGY THROUGH CHITTICK'S LENS	270-274

10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI

<i>Kaniyazova Jupargul Orinbayevna</i> THE RETROSPECTIVE PLOT IN THE SHORT NOVELS OF CH. AITMATOV	275-280
<i>Алиева Эльвина Аметовна, Нуруллаева Дилбар Алиевна</i> СПОСОБЫ ВЫРАЖЕНИЯ СРАВНЕНИЯ НА ЛЕКСИЧЕСКОМ, СЛОВООБРАЗОВАТЕЛЬНОМ И МОРФОЛОГИЧЕСКОМ УРОВНЯХ (НА МАТЕРИАЛЕ РАССКАЗОВ А. И. КУПРИНА)	281-285
<i>Sanaqulova Fayoz</i> REKLAMA MATNLARIDA METAFORA TURLARI VA YONDOSH HODISALAR	286-289
<i>Ruzibayeva Aziza Kahramanovna</i> THE THEME OF EXILE AND ALIENATION IN BYRON'S POETRY	290-293
<i>Norqobilova Nigora Uralovna</i> O'ZBEK VA INGLIZ TILLARIDAGI OLQISH VA QARG'ISH SO'ZLARING LINGVOMADANIY SHARTLANISHI	294-298
<i>Ahmedova Fayyoz Rashidovna</i> O'ZBEKISTONDA ICHKI TURIZM RIVOJLANISHINING INFRATUZILMAVIY, RAQAMLI VA SOTSIOMADANIY DRAYVERLARI	299-306
<i>Elmuratova Zamira Khodjamuratovna</i> SOME PECULARITIES OF ENGLISH, KARAKALPAK AND TURKMEN PROVERBS ABOUT LABOR	307-310

12.00.00 – YURIDIK FANLAR

<i>Sultanova Sabohat Alisherovna</i> FURTHER DEVELOPMENT OF THE INSTITUTE FOR ASSESSMENT OF REGULATORY IMPACT IN THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN AS AN ELEMENT OF "SMART REGULATION"	311-317
<i>Qushboqov Shohrux Xasan o'g'li</i> JAZONI IJRO ETISH MUASSASALARINING TURLARI VA ULARNING FUQAROLIK-HUQUQIY MAQOMINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI BORASIDA AYRIM MULOHAZALAR	318-328
<i>Egamberdiyev Vohidjon Otabekovich</i> JAZONI IJRO ETISH MUASSASALARIDAN OZOD ETILGAN SHAXSLARNI IJTIMOY REABILITATSIYA QILISH VA MOSLASHTIRISH FAOLIYATINI TASHKIL ETISH	329-339
<i>Xushvaqtov O'tkir Temirovich</i> VOYAGA YETMAGANLAR TOMONIDAN SODIR ETILADIGAN JINOYATLAR PROFILAKTIKASI BO'YICHA MILLIY QONUNCHILIK NORMALARI TAHLILI	340-346
<i>Leonid Khvan Borisovich, Zilola Gulimova</i> THE IMPACT OF ARTIFICIAL INTELLIGENCE IN PUBLIC ADMINISTRATION	347-353
<i>Normatova Shirin Abdalnabiyevna</i> XOTIN-QIZLARGA NISBATAN ZO'RAVONLIKKA QARSHI KURASH BO'YICHA MILLIY QONUNCHILIKDAGI BO'SHLIQLAR TAHLILI	354-362

<i>Каюмова Асаля Султномуродовна</i> ГРАЖДАНСКО-ПРАВОВЫЕ РЕФОРМЫ В УЗБЕКИСТАНЕ: ПРАКТИЧЕСКИЕ РЕЗУЛЬТАТЫ И ПЕРСПЕКТИВЫ	363-368
<i>Abdullayeva Sabohat Asatullo qizi</i> KRIPTOAKTIVLARGA OID JINOYATLAR VA XALQARO HUQUQIY TARTIBGA SOLISH ...	369-377
<i>Imomniyozov Doniyorbek Baxtiyor o'g'li</i> VIRTUAL MULKNING HUQUQIY REJIMI: SUI GENERIS YONDASHUV	378-392
<i>Amonov Zavqiddin</i> ISLOM HUQUQIDA MULKIY HUQUQLAR PARADIGMASI	393-400
<i>Saidmuradov Najmiddin Nabijonovich</i> YUQORI INSTANSIYA SUDLARIDA PROKUROR ISHTIROKINING JINOYAT-PROTSESSUAL JIHATLARI	401-405
<i>Makhmudjanova Mokhirakhon</i> ANALYSIS OF INTERNATIONAL EXPERIENCE IN ENSURING GENDER EQUALITY	406-411
<i>Нормуродова Азиза Азимжон кизи</i> СЕКСУАЛЬНОЕ НАСИЛИЕ С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ ИЗОБРАЖЕНИЙ: ПОНЯТИЕ, ФОРМЫ И ПРАВОВЫЕ АСПЕКТЫ	412-418

13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI

<i>Utkirov Nusrat</i> BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIDA HARAKAT SIFATLARINI RIVOJLANTIRISHDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR VA MUAMMOLI- MODULLI YONDASHUVLAR	419-424
<i>Jamolova Shahlo Qobilovna</i> BO'LAJAK FIZIKA FANI O'QITUVCHILARINING KASBIY KOMPETENTLIGINI DASTURIY TA'LIM VOSITALARIDAN FOYDALANIB RIVOJLANTIRISH METODIKASI ("REAL GAZLAR. MOLEKULALARARO O'ZARO TA'SIR. REAL GAZLAR. VAN-DER-VAALS TENGLAMASI" MAVZU MISOLIDA)	425-428
<i>Rasulova Moxidil</i> TIBBIYOT TA'LIMI TIZIMIDA FUNDAMENTAL FANLARNI O'ZLASHTIRISHDA TALABALAR BILIMINI BAHOLASHNING ASOSIY SABABLARI VA DIDAKTIK IMKONIYATLARI	429-438
<i>Ismailov Oybek Abdurasulovich</i> ANESTEZIOLOGIYA FANINI O'QITISHDA ENTRUSTABLE PROFESSIONAL ACTIVITIES (EPA) TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANIB TALABALARGA MALAKAVIY TA'LIM BERISH	439-445
<i>Davlatova Nilufar Vosiljonovna</i> BO'LAJAK IQTISODCHI MUTAXASSISLARNING KREATIV IQTISODIY FIKRLASHINI RIVOJLANTIRISHDA PROBLEMALI VA LOYIHALI O'QITISH TEXNOLOGIYALARI	446-449

13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI – PEDAGOGICAL SCIENCE**Received:** 20 October 2025**Accepted:** 15 November 2025**Published:** 30 November 2025*Article / Original Paper***MODERN PEDAGOGICAL TECHNOLOGIES AND PROBLEM-MODULE APPROACHES IN DEVELOPING MOTOR SKILLS IN PRIMARY SCHOOL STUDENTS****Utkirov Nusrat Kamilovich**Associate Professor, Navoi Innovation University,
Navoi, Uzbekistan.

Abstract. This article is dedicated to the development of motor skills in primary school students. Methods, methodological, and practical aspects of shaping motor skills based on modern pedagogical technologies and problem-module approaches are studied. The effectiveness of interactive, differentiated, and active teaching technologies in developing students' motor abilities is analyzed. In addition, it is demonstrated how problem-module approaches help develop students' creative thinking and independent movement skills.

Keywords: learning process, compensatory, flexible, support-movement, load, problem-module approach, training, skill, component, motor quality.

BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIDA HARAKAT SIFATLARINI RIVOJLANTIRISHDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR VA MUAMMOLI-MODULLI YONDASHUVLAR**Utkirov Nusrat Kamilovich**

Navoiy innovatsiyalar universiteti dotsenti,

Navoiy, O'zbekiston

E-mail: utkirov72@bk.ru<https://orsid.org/0009-0004-2189-1575>

Annotatsiya. Ushbu maqola boshlang'ich sinif o'quvchilarida harakat sifatlarini rivojlantirish masalalariga bag'ishlangan. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar va muammoli-modulli yondashuvlar asosida harakat sifatlarini shakllantirish usullari, metodik va amaliy jihatlari o'rganilgan. O'quvchilarning motor ko'nikmalarini rivojlantirishda interaktiv, differensial va faol o'qitish texnologiyalarining samaradorligi tahlil qilingan. Shu bilan birga, muammoli-modulli yondashuvlar yordamida o'quvchilarning ijodiy fikrlash va mustaqil harakat qilish ko'nikmalari qanday rivojlantirilishi ko'rsatib o'tilgan.

Kalit so'zlar: o'quv jarayoni, kompensatsion, elastik, tayanch-harakat, yuklama, muammoli-modulli yondashuv, mashg'ulot, ko'nikma, komponent, harakat sifati.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5SI10Y2025N64>

Kirish. Yangi O'zbekiston siyosiy va ijtimoiy rivojlanish konsepsiyasi doirasida mamlakatimizda ham dunyoda rivojlangan davlatlar tajribasiga mos ravishda umumta'lim maktab o'quvchilarining salomatlik holatini yaxshilash, ularning jismoniy rivojlanishini yoshga xos xususiyatlar asosida mashg'ulotlarni tashkil etish masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Ammo hozirgi kunda ba'zi hollarda o'sib kelayotgan yosh avlodning jismoniy rivojlanishi va harakat sifatlarining pasayib borayotganligi kuzatilmoqda. Bu holatning asosiy sabablaridan biri – jismoniy tarbiya darslarida boshlang'ich sinf o'quvchilarining jismoniy holatiga nisbatan individual yondashuvning yetarli darajada yo'lga qo'yilmaganidir. Shu bilan birga, mashg'ulotlar sifatini oshirishga qaratilgan "Taraqqiyot strategiyasi"da belgilangan vazifalar mazmunidan kelib chiqadigan holda, ta'lim jarayonini takomillashtirish va yangi pedagogik texnologiyalarni joriy etish zarurati ham yaqqol sezilmoqda. Bu esa o'quvchilarning harakat ko'nikmalarini rivojlantirishda innovatsion yondashuvlarni keng qo'llashni taqozo etadi.

Jismoniy tarbiya bo'yicha ta'lim tizimini takomillashtirishning asosiy vazifalaridan biri — bazaviy harakat ko'nikmalarini rivojlantirish va o'quvchilarda sog'lom turmush madaniyatini shakllantirishdir. O'zbek ta'lim modeli tamoyillariga muvofiq, har bir bolaning shaxsiy imkoniyatlari, yoshga xos psixofiziologik xususiyatlari va harakat faoliyati darajasidan kelib chiqib o'qitish jarayonini tashkil etishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Jahonning yetakchi xorijiy davlatlarida bo'lgani kabi, yurtimizda ham o'quvchilarning harakat sifatlarini sensitiv rivojlanish davrlarini inobatga olgan holda, sport turlariga mos antropometrik ko'rsatkichlar asosida dastlabki tanlash va yo'naltirishga qaratilgan ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Bu esa O'zbekiston ta'lim tizimini xalqaro standartlar darajasida rivojlantirishga xizmat qilmoqda.

Tadqiqot metodologiyasi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida harakat sifatlarini rivojlantirishda zamonaviy pedagogik texnologiyalar va muammoli-modulli yondashuvlar bu o'quv jarayonini o'quvchi imkoniyatlariga moslashtirilgan, faoliyatga asoslangan, mantiqiy izchillikda tashkil etish orqali ularning kuch, chaqqonlik, tezkorlik, egiluvchanlik, muvozanat kabi jismoniy sifatlarini maqsadli rivojlantirishga qaratilgan ta'lim tizimidir.

Zamonaviy pedagogik texnologiyalar bu o'quv jarayonini oldindan aniq rejalashtirilgan maqsadga yo'naltirgan holda, zamonaviy metod va vositalar asosida yuqori samaradorlikka erishishni ta'minlovchi ta'limni tashkil etish tizimidir.

Muammoli-modulli yondashuv bu o'quv jarayonini muayyan mavzular bo'yicha kichik modul-larga ajratgan holda, har bir modulni muammoli vaziyatlar va amaliy topshiriqlar asosida o'qitishga yo'naltirilgan pedagogik yondashuvdir.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida harakat sifatlarini rivojlantirish jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalar va muammoli-modulli yondashuvlardan foydalanish ta'lim samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Shu nuqtai nazardan, umumta'lim maktablarida o'quvchilarning alohida jismoniy sifatleri dinamikasini o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki jismoniy rivojlanishning o'quv yili davomida ayrim sifatlar o'sish bosqichida bo'lishi, boshqalari esa ma'lum davrlarda pasayishi mumkin. Ushbu jarayonlarni tizimli kuzatish va tahlil qilish, natijada har bir o'quvchi uchun individual yondashuv asosida mashg'ulotlarni rejalashtirish va amalga oshirishni talab etadi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Respublikamizdagi umumta'lim maktablarida o'quvchi yoshlarning jismoniy tarbiya va sport bilan muntazam shug'ullanishini ta'minlovchi amaliy chora-tadbirlar bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda. "Umumta'lim maktab o'quvchilari uchun sog'lom ovqatlanish tamoyillarini ommalashtirish, umumta'lim muassasalarida sport to'garaklarini tashkil qilish"[1:] kabi vazifalarni qo'yadi.

Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy etish jarayonida jismoniy tarbiya darslarida o'quvchilarning individual jismoniy imkoniyatlarini e'tiborga olish muhim ahamiyatga ega.

Bugungi kunda umumta'lim maktablarida jismoniy tarbiya bo'yicha belgilangan me'yor talablarini bajara olmaydigan o'quvchilarga alohida pedagogik yondashuvni qo'llash zarurati ortib bormoqda. Shu sababli, jismoniy rivojlanishdan ortda qolayotgan boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun harakat sifatlarini tarbiyalashga qaratilgan kompensator mashqlar majmualarini ishlab chiqish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Muammoli-modulli yondashuv asosida tashkil etilgan mashg'ulotlarda bunday kompensator mashqlardan foydalanish o'quvchilarning jismoniy tayyorgarlik ko'rsatkichlari dinamikasini muntazam tahlil qilish imkonini beradi. Natijada, har bir o'quvchining harakat faoliyatidagi o'ziga xos ehtiyojlarini aniqlash va ularga moslashtirilgan mashg'ulot dasturlarini ishlab chiqish osonlashadi. Bu esa boshlang'ich sinf o'quvchilarining harakat sifatlarini rivojlantirishda samaradorlikni ta'minlovchi muhim yo'nalish sifatida e'tirof etiladi.

Jamiyatning ijtimoiy rivojlanishi va insoniy qadriyatlarni ustuvor qo'yish tamoyillari jismoniy tarbiya jarayonida boshlang'ich sinf o'quvchilarining organizmiga ko'rsatiladigan ta'sir mexanizmlarini takomillashtirishni taqozo qilmoqda. Bu jarayon zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida ilmiy ta'minotni rivojlantirish sur'ati va yo'nalishini belgilab beradi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining jismoniy rivojlanishi jismoniy va aqliy komponentlarning uyg'unlashgan tizimi sifatida qaraladi. Jismoniy mashqlar ushbu ikki komponentga bir vaqtda ta'sir etib, o'quvchilarda bir tomondan harakat sifatlarini, ikkinchi tomondan esa axloqiy-irodaviy sifatlar va qadriyatlarni shakllantiradi. Shuning uchun jismoniy tarbiya jarayonini faqat bir funksional bo'g'inga yo'naltirish mumkin emas — har ikki yo'nalish ham uzviy bog'liq holda rivojlanishi lozim.

Biroq har ikki komponentni bir vaqtning o'zida maksimal darajada takomillashtirish amaliy jihatdan qiyin. Bu jarayonda pedagogik nazorat muhim ahamiyat kasb etadi. Nazorat asosida o'quvchining qaysi funksional qismi rivojlanishda ortda qolayotganini aniqlash va muammoli-modulli yondashuvlar asosida korreksion mashg'ulotlarni rejalashtirish mumkin bo'ladi.

Zamonaviy olimlar ta'kidlaganidek, har bir o'quvchi jismoniy salohiyatga ega — bu hali to'liq namoyon bo'lmagan, o'quv faoliyati davomida shakllanadigan imkoniyatlar majmuasidir. Jismoniy salohiyatni rivojlantirish orqali sog'lomlashtirish vazifalari bajarilib, yoshga bog'liq chorralarda organizmning optimal rivojlanishi ta'minlanadi.

Harakat sifatlarini rivojlantirishda zamonaviy pedagogik texnologiyalar, xususan:

- komplementar mashqlar;
- kompensator vositalar;
- analitik va umumiy ta'sirga ega mashqlar;
- muammoli-modulli o'qitish texnikalari keng qo'llanilishi samaradorlikni oshiradi.

Jumladan,

— dinamik kuchni tarbiyalashda asosiy mushak guruhlari uchun propioseptiv faollikni kuchaytiruvchi mashqlar qo'llanadi;

- chidamkorlik va egiluvchanlikni oshirish uchun yumshoq tayanchli sakrash-yugurish kombinatsiyalariga ega kompensatsion vositalardan foydalaniladi;

- bo'g'imlarga ortiqcha yuklama bermasdan mushaklar tizimini mustahkamlash uchun osilish, tortilish kabi komplementar mashqlar kiritiladi;

- tezkorlik va chaqqonlikni rivojlantirish uchun anjomli noodatiy mashqlar (to'p bilan koordinatsion topshiriqlar va b.) muhimdir.

Muammoli-modulli yondashuv asosida ushbu mashqlarni tanlash va qo'llash o'quvchilarning jismoniy rivojlanish dinamikasini muntazam tahlil qilish, mustaqil faoliyatga yo'naltirish hamda shaxsiy harakat salohiyatini bosqichma-bosqich ochib borish imkonini yaratadi.

Natijada, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni jismoniy tarbiya tizimiga kompleks joriy etish boshlang'ich sinf o'quvchilarining harakat sifatlarini maqsadli, ilmiy asoslangan va differensiallashtirilgan holda rivojlantirishga xizmat qiladi.

Zamonaviy yangi texnologiyalarning rivojlanishi natijasida 100 metrga yugurish kabi oddiy mashqlarda ham o'nlab turli ko'rsatkichlarni qayd etish imkoniyati mavjud bo'ladi. Masalan, sprinterning reaksiya qilish vaqtini, maksimal tezlikka erishish vaqtini, uni ushlab turish va pasaytirib yuborish vaqtini, masofaning turli uchastkalaridagi qadamlarning uzunligi va chastotasini, oyoqni tayanch va o'tkazish vaqtini, kuchlanishlarning gorizontal va vertikal tarkibiy tuzilmasini, massa umumiy markazining (MUM) tebranishlarini, tayanch va uchish davrlarining turli fazalaridagi bo'g'imlar burchagini va hokazolarni o'lchash mumkin. [2, 118]

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida harakat sifatlarini rivojlantirish masalasi respublikamizda va xorijda bir qator ilmiy tadqiqotlar obyektiga aylangan. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, jismoniy tarbiya sohasi rivojlanayotgan tizim sifatida bir-biri bilan chambarchas bog'liq bo'lgan ko'plab tarkibiy elementlardan iborat.

Zamonaviy pedagogik texnologiyalar va muammoli-modulli yondashuvlar jismoniy tarbiya tizimining metodologik asosini boyitadi. Shu nuqtai nazardan, tizimni tashkil etuvchi asosiy element sifatida jismoniy tarbiya metodologiyasi namoyon bo'lib, u o'zida o'quvchilarning harakat sifatlarini rivojlantirish jarayonidagi nazariy tamoyillar, pedagogik metodlar va innovatsion texnologiyalarni aks ettiradi.

Bu yondashuvlar yordamida o'quvchilarni harakat faoliyatiga yo'naltirish, individual xususiyatlarni hisobga olgan holda differensiallashtirilgan mashg'ulotlarni tashkil etish va muammoli-modulli metodlar orqali o'quvchilarning ijodiy va mustaqil harakat ko'nikmalarini shakllantirish imkoniyati yaratiladi.

Xususan, respublikamizning yetakchi olimlaridan R.S.Salomov, T.S.Usmonxodjayev, A.N.Abdiyevlar boshlang'ich sinf o'quvchilarining jismoniy va aqliy rivojlanishida texnik, taktik, aqliy va funksional tayyorgarlikka alohida e'tibor berish kerakligini ta'kidlab o'tgan bo'lsa, N.T.To'xtaboyev, A.N.Shopulatov, K.D.Yarashev, N.A.Xudayberdiyevlar maktab o'quvchilarining jismoniy sifatlarini harakatli o'yinlardan foydalangan holda rivojlantirish, jismoniy tarbiya va sport sohasida pedagog kadrlarni tayyorlash tizimini takomillashtirish muhim deb hisoblashgan.

Sport bilan shug'ullanganda salomatlikni mustahkamlash, jismonan rivojlanish, yanada kuchli, tezkor, chaqqon, chidamli bo'lish mumkin. Sport kun tartibiga rioya qilishga o'rgatadi, organizmni chiniqtiradi, lekin u yana sportchining axloqiy-irodaviy fazilatlari rivojlanishiga, psixologik tayyorgarligiga ham ta'sir ko'rsatadi. [3, 19]

V.A.Anikeyev, V.Y.Anisimova, A.G.Barabanov, L.P.Matveyevlar maktab o'quvchilarining jismoniy tayyorgarligini monitoring qilish, jismoniy sifatlarining rivojlanish qonuniyatlarini o'rganish, o'quvchilar jismoniy tarbiyasi tizimining samaradorligiga oid mavjud ko'plab ilmiy tadqiqotlarga qaramay, ko'p qirrali jismoniy tarbiya texnologiyalari hamda o'quv yili davomida turli ta'limiy-rivojlantiruvchi yo'nalganlikka ega bo'lgan jismoniy tarbiya darslarida boshlang'ich sinf o'quvchilarining jismoniy sifatlarini izchil rivojlantirishning barqaror

tendensiyasiga erishish shartlarini ilmiy asoslash dolzarb bo'lib qolayotganligini ta'kidlab o'tgan.

Harakat ko'nikmasining ritmli-tezkor komponentini shakllantirish bo'yicha vazifaning kuch bazasini dastlab yaratish bo'yicha vazifa oldidagi ustuvorligini, tabiiy harakat malakalari sifatida ham va harakat faoliyatining barcha jismoniy sifatlari ichida tezkorlikni rivojlantirish eng murakkab ekanligi bilan ham tushuntirish mumkin. [4, 287]

Tezlik va chaqqonlikni rivojlantirishda ko'proq quyidagi mashqlar qo'l keladi. Masalan, murakkablashtirilgan mashqlar: to'siqlarni oshib o'tish, qarshiliklarni yengish, tortish; yengillashtirilgan mashqlar: pastga yugurish, to'plar, toshlar bilan yugurib o'tish, turli estafetalar; ruhlantiruvchi mashqlar — harakatli va sport o'yinlari. [5, 145]

Tahlil va natijalar. Natijada, boshlang'ich sinf o'quvchilarining harakat sifatlarini va harakatlanish apparatini har tomonlama rivojlantirishga yo'naltirilgan jismoniy tarbiya vositalarini zamonaviy pedagogik texnologiyalar va muammoli-modulli yondashuvlar asosida qo'llash bilan birga, kompensatsiya qiluvchi maxsus vositalar ishlab chiqish zarurati yuzaga keladi.

O'quv yili choraklari davomida boshlang'ich sinf o'quvchilarining alohida jismoniy sifatlarning o'zgarish dinamikasi aniqlanib, unga mos testlar ishlab chiqiladi. Shu asosda jismoniy tarbiya darslarida o'quvchilarning individual jismoniy tayyorgarligi darajasini inobatga olgan holda mashqlarni me'yorlash va tasniflash tizimi ishlab chiqilib, amaliyotga joriy etilishi talab etiladi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'quv jarayonida kompensator mashqlaridan foydalanish natijadorligini ta'minlash maqsadida nazorat mashqlari usuli qo'llanildi. Ushbu mashqlar tadqiqot o'tkazish uchun belgilangan yagona standart rejim asosida amalga oshirildi. Shu bilan birga, zamonaviy pedagogik texnologiyalar va texnologik yondashuvlar yordamida retsenzentlar uchun bir xil psixo-emotsional muhit yaratish talablariga rioya qilindi, bu esa tadqiqot natijalarining obyektivligini ta'minladi.

Xulosa va takliflar. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining jismoniy tarbiyasida harakatli o'yinlar, sport o'yinlari va yengil atletikaning ko'plab elementlari mavjud. Bu oyoq mushaklarining rivojlanishining keskin o'sishiga yordam beradi. Ushbu mashqlar oyoq mushaklarining tezlik sifatlari va tezlik-kuch sifatlarini rivojlantirishga yordam beradi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining har tomonlama jismoniy tayyorgarligiga erishish maqsadida, o'quv dasturining bo'limlariga muvofiq qo'llaniladigan bazaviy va kompensator vositalar tizimidan foydalanish uslubiy jihatdan asoslangan va maqbul hisoblanadi.

Kompensator mashqlarning jismoniy yuklamalari rejimi o'quvchilarning organizm funksional tizimlariga ta'sirning "chegaraviy" shartlariga mos kelishi lozim. Bu yuklamalar jismoniy sifatlarning turiga yo'naltirilgan bo'lib, kompensator mashqlarining dars strukturasidagi bajarilish o'rniga muvofiq tartibga solinadi.

Uslubiy asoslangan yo'naltirilgan ta'sir metodikasi bilan kompensator mashqlardan foydalanishning ijobiy samarasi, haftasiga 2 ta dars tashkil qilinsa, 7–8 haftadan so'ng namoyon bo'ladi. Bu esa jismoniy sifatlarni har tomonlama rivojlantirish va yetakchi mushak guruhlarining holatini yaxshilashda kompensator mashqlarining samaradorligini aniqlash imkonini beradi.

Bazaviy vositalar va kompensator mashqlarni birlashtirgan "aylanma trenirovka" mazmunini ishlab chiqishda, asosiy jismoniy sifatlarni va mashqni bajaruvchi yetakchi mushak

guruhlarining ilgari erishilgan tayyorgarlik darajasi hamda darsning turli qismlarida alohida kompensator mashqlarni bajarish imkoniyati hisobga olinadi.

Kompensator mashqlar darsning tayyorgarlik qismi uchun ajratilgan vaqtni qisqartirish hisobiga, umumrivojlantiruvchi mashqlar kompleksi oqim usulida bajarilishi mumkin. Shu tarzda, zamonaviy pedagogik texnologiyalar va muammoli-modulli yondashuvlar yordamida mashg'ulotlarni optimallashtirish va harakat sifatlarini samarali rivojlantirish ta'minlanadi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 29 apreldagi "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" PF-5712-son farmoni.
2. Musayev B.B. Sport metrologiyasi. O'quv qo'llanma. -T.: "Navro'z" nashriyoti. 2015 y. 200 bet.
3. Olimov M.S. Sport pedagogik mahoratini oshirish. O'quv qo'llanma. -T.: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2017 y. 232 bet.
4. Umarov D.X. Biomexanika. Darslik. -T.: "Sano-standart" nashriyoti. 2017 y. 388 bet.
5. Usmonxo'jayev T.S., Arzumanov S.G. Jismoniy tarbiya. Darslik. -T.: "O'qituvchi" NMIU, 2007 y. 208 bet.

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ S/10 (5) – 2025

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).